

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 187 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQRUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Zarikeyeva Miyasar Maratovna

University of Innovation Technologies

"Moliya va iqtisodiyot" kafedrası

Dotsenti v.v.b., (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Raqamli texnologiyalarning turizm sohasida qo'llanishi, xususan onlayn bronlash tizimlari, elektron to'lovlar, mobil ilovalar, virtual turlar va raqamli marketing vositalari ko'rib chiqildi. Statistika va grafik tahlillar asosida hududda turistlar oqimi hamda raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi o'sib borayotganligi aniqlandi [2]. Shuningdek, Qoraqalpog'istonning o'ziga xos turistik salohiyatini xalqaro miqyosda targ'ib etish va turizm infratuzilmasini raqamlashtirishning ijobiy ta'siri ham muhokama qilindi [5].

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, turizm sohasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, onlayn bronlash, elektron to'lov, virtual turizm, raqamli marketing, ekoturizm, Savitskiy muzeyi, Orol dengizi.

Abstract: In this article, the possibilities of developing the tourism sector in the Republic of Karakalpakstan in the context of the digital economy were analyzed. The application of digital technologies in the tourism sector was considered, in particular, online booking systems, electronic payments, mobile applications, virtual tours, and digital marketing tools. Based on statistical and graphical analysis, it was established that the flow of tourists and the level of use of digital services are growing in the region [2]. The positive impact of promoting Karakalpakstan's unique tourism potential internationally and the digitalization of tourism infrastructure was also discussed [5].

Key words: digital economy, tourism sector, Republic of Karakalpakstan, online booking, electronic payment, virtual tourism, digital marketing, ecotourism, Savitsky Museum, Aral Sea.

Аннотация: В данной статье проанализированы возможности развития сферы туризма в Республике Каракалпакстан в условиях цифровой экономики. Рассмотрено применение цифровых технологий в сфере туризма, в частности, системы онлайн-бронирования, электронные платежи, мобильные приложения, виртуальные туры и инструменты цифрового маркетинга. На основе статистического и графического анализа было установлено, что поток туристов и уровень использования цифровых услуг в регионе растут [2]. Также обсуждалось продвижение уникального туристического потенциала Каракалпакстана на международном уровне и положительное влияние цифровизации туристической инфраструктуры [5].

Ключевые слова: цифровая экономика, сфера туризма, Республика Каракалпакстан, онлайн-бронирование, электронная оплата, виртуальный туризм, цифровой маркетинг.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasi milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1]. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi o'zining boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy resurslari va ekologik turizm imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Hududda Xorazm vohasi yodgorliklari, Qoraqalpoq davlat san'at muzeyi [6], Orol dengizi atrofi ekologik turizmi, Elliqqala yodgorliklari majmuasi hamda Moynaq shahri kabi turistik obyektlar mavjud.

Shuningdek, turizm infratuzilmasida raqamli texnologiyalarni qo'llash darajasi rivojlanish bosqichida. Shu sababli, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanish Qoraqalpog'istonning turizm salohiyatini to'liq ochib berishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi [3].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizmni raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish masalasi xalqaro va milliy miqyosda keng o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari [1] mamlakatda turizm sohasida raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu hujjatlarda onlayn xizmatlarni kengaytirish, elektron to'lov tizimlarini rivojlantirish hamda turistlar uchun mobil ilovalarni yaratish kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining statistik ma'lumotlariga ko'ra [2], so'nggi yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasida turistlar oqimi izchil oshib bormoqda. Ayniqsa, 2020–2024-yillar davomida turistlar soni 3,5 barobarga ko'paygan, raqamli xizmatlardan foydalanish esa 15 foizdan 70 foizgacha o'sish qayd etilgan. Bu ko'rsatkichlar turizm sohasida raqamli transformatsiya samaradorligini yaqqol ifodalaydi.

To'raqulov B. [3] o'z asarlarida raqamli iqtisodiyotning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilib, turizmni innovatsion texnologiyalarni joriy etish hududiy raqobatbardoshlikni oshirishini ta'kidlaydi. Qodirova D. [4] esa turizm menejmenti va marketingi bo'yicha olib borgan tadqiqotlarida elektron bronlash hamda to'lov tizimlari turistlar uchun xizmat ko'rsatish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini asoslaydi.

Xalqaro tajribaga murojaat qilsak, BMT Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning "Tourism and Digital Transformation Report" hisobotida [5] raqamli texnologiyalar turizmning yangi tendensiyalarini shakllantirayotgani, xususan, virtual turlar (VR/AR), mobil ilovalar va startap loyihalar turistlar tajribasini yaxshilashga xizmat qilayotgani qayd etilgan. Qoraqalpog'iston turizmining o'ziga xos jihatlaridan biri — Savitskiy san'at muzeyi [6] hamda Orolbo'yi hududidagi ekologik turizm manbalarini raqamli platformalarda keng targ'ib etish imkoniyatidir. Bu borada xalqaro internet platformalari orqali hududiy turizm brendini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Statista [7] tomonidan keltirilgan raqamli turizm ko'rsatkichlari global miqyosda onlayn xizmatlardan foydalanish hajmining keskin o'sib borayotganini tasdiqlaydi. Bu esa Qoraqalpog'iston Respublikasida ham raqamli xizmatlarni keng joriy etish orqali xalqaro turistik oqimni oshirish mumkinligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli iqtisodiyot turizmni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab bermoqda. Milliy manbalarda asosan amaliy mexanizmlar — bronlash, elektron to'lov va mobil ilovalar masalalari yoritilgan bo'lsa, xalqaro adabiyotlarda strategik yondashuvlar hamda innovatsion texnologiyalar alohida ta'kidlangan. Shu bois, ularni uyg'unlashtirib, Qoraqalpog'iston sharoitiga moslashtirish tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bir qator ilmiy yondashuvlardan foydalanilgan bo'lib, ular natijalarning ishonchligi va kompleksligini ta'minlashga xizmat qilgan. Analitik yondashuv yordamida Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm infratuzilmasining hozirgi holati chuqur o'rganildi, mavjud muammolar va rivojlanish istiqbollari aniqlab chiqildi. Ushbu jarayonda turizm obyektlari, xizmat turlari va ularning raqamlashtirilish darajasi tahlil qilindi, bu esa mintaqaning turizm salohiyatini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotda taqqoslash usuli ham qo'llanilib, O'zbekistonning boshqa hududlari va qo'shni davlatlar tajribasi bilan solishtirish amalga oshirildi. Bu yondashuv Qoraqalpog'iston Respublikasining raqamli turizmni rivojlantirishdagi ustun va zaif jihatlarini aniqlash, hamda ilg'or tajribalarni mahalliy sharoitga moslashtirish imkonini berdi.

Statistik tahlil orqali turistlar oqimi, raqamli xizmatlardan foydalanish ko'rsatkichlari va turizm infratuzilmasining raqamli transformatsiya darajasi o'rganildi [2]. Shu bilan birga, nazariy umumlashtirish asosida turizm sohasidagi xalqaro raqamli tajribalar tahlil qilinib, ularni Qoraqalpog'iston sharoitiga moslashtirishning ilmiy asoslari ishlab chiqildi [5]. Mazkur yondashuvlar birgalikda tadqiqotning ilmiy asoslanganligini va amaliy qiymatini oshirdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy modernizatsiyasi jarayonida strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda. Bugungi kunda turizm nafaqat madaniy almashinuv va rekreatsion faoliyat manbai, balki raqamli texnologiyalar orqali barqaror daromad keltiruvchi iqtisodiy tarmoq sifatida shakllanmoqda. Qoraqalpog'iston hududida, xususan, Orolbo'yi mintaqasida turizmni raqamlashtirish iqtisodiyot diversifikatsiyasi va yangi ish o'rinlari yaratishda muhim omilga aylanishi mumkin. Shu bois so'nggi yillarda elektron hukumat, raqamli marketing, onlayn bronlash va axborot platformalari kabi raqamli infratuzilmalarni joriy etish jarayonlari jadal kechmoqda.

Avvalo, raqamli iqtisodiyot turizm xizmatlarini avtomatlashtirish va shaffoflikni oshirish imkonini beradi. Masalan, onlayn bronlash tizimlari, elektron to'lov platformalari, QR-kod asosidagi gid xizmatlari hamda sun'iy



intellekt yordamida turistlarga individual yo'nalishlar taklif etish kabi yechimlar xizmat sifatini oshiradi. Raqamli texnologiyalar turistlar oqimini tahlil qilish va prognozlash imkonini yaratadi, bu esa mahalliy hokimiyatlar uchun rejalashtirish va infratuzilmani rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, "Smart Tourism" konsepsiyasi asosida ishlovchi platformalar orqali Nukus, Moynaq, Ellikqala kabi shaharlarda mavjud diqqatga sazovor joylar haqidagi ma'lumotlarni interaktiv xaritalar orqali taqdim etish mumkin.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

Onlayn turizm platformalari — Ellikqala, Moynaq va Nukusdagi diqqatga sazovor joylarni targ'ib qiluvchi yagona raqamli portalni tashkil etish.

Virtual turlar (VR/AR texnologiyalari) — Savitskiy muzeyi kolleksiyasini [6] hamda Orol dengizi fojiasini virtual shaklda namoyish etish.

Elektron to'lov tizimlari — xorijiy turistlar uchun Payme, Click va xalqaro bank kartalari orqali tezkor to'lov imkoniyatlarini yaratish [4].

Mobil gid-ilovalar — Nukus va Ellikqala yodgorliklarida turistlar uchun ko'p tilli elektron gidlar xizmatini joriy etish.

Ekoturizmni raqamlashtirish — Orolbo'yi hududida ekologik turizmni onlayn bronlash va statistik monitoring tizimini yo'lga qo'yish.

Startup loyihalar — yoshlar uchun turizmga oid raqamli tashabbuslarni, masalan, "Smart Nukus" kabi innovatsion loyihalarni rivojlantirish [3].

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Respublikada turistlar oqimi (ming kishi) 2020–2024-yillar oralig'ida muntazam oshib, 120 mingdan 420 mingga yetgan [2]. Raqamli xizmatlardan foydalanish darajasi (%) esa 2020-yildagi 15 foizdan 2024-yilda 70 foizgacha ko'tarilgan [7].

Bu natijalar Qoraqalpog'iston Respublikasida raqamli iqtisodiyot asosida turizmni rivojlantirish istiqbollari keng ekanini va raqamli transformatsiyaning hududiy iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi (1-jadval).

1-jadval. Qoraqalpog'iston turizmida raqamli xizmatlar va turistlar oqimi

Yil	Turistlar soni (ming)	Raqamli xizmatlardan foydalanish (%)
2020	120	15
2021	150	25
2022	210	40
2023	300	55
2024	420	70

Qoraqalpog'istonning turizm salohiyati nihoyatda boy: Savitskiy nomidagi san'at muzeyi, qadimiy Ellikqala yodgorliklari, Orol dengizining ekologik turizmi va etnografik madaniyat markazlari mintaqani o'ziga xos sayyohlik markaziga aylantira oladi. Ammo bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun raqamli infratuzilma va axborot tizimlari rivojini ta'minlash zarur. Ayniqsa, internet tezligi, mobil tarmoq qamrovi va raqamli kontentni yaratish darajasi pastligi hozirgi kunda asosiy to'siqlardan biridir. Shu sababli, turizm sohasida "Digital Qoraqalpog'iston" dasturi doirasida raqamli infratuzilmani kengaytirish, sun'iy yo'ldosh internet texnologiyalarini joriy etish va mobil aloqa operatorlari uchun sarmoyaviy rag'batlar yaratish muhim yo'nalish hisoblanadi.

Bundan tashqari, raqamli marketing strategiyalari Qoraqalpog'istonni xalqaro turizm xaritasida faol targ'ib etishda alohida rol o'ynaydi. Ijtimoiy tarmoqlar, onlayn reklama kampaniyalari, bloggerlar va virtual turlar yordamida mintaqaning noyob tabiiy va madaniy merosini dunyoga tanitish mumkin. Bunday raqamli kommunikatsiyalar orqali Orol fojiasi ortidagi ekologik tiklanish loyihalarini turistik brend sifatida shakllantirish hamda "eko-turizm" yo'nalishida investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Shu bilan birga, zamonaviy axborot tizimlari yordamida turistlar uchun "one-stop" (bir nuqtali xizmat) tizimi joriy etilishi — vizalar, transport, tur paketlar va joy band qilish jarayonlarini yagona platforma orqali amalga oshirishni ta'minlaydi.

Raqamli iqtisodiyotning yana bir muhim jihati — ma'lumotlar tahlili asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilishdir. Turistlar oqimi, sarf-xarajatlar, mavsumiy talab va xizmat sifati haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish orqali Qoraqalpog'istonning turizm siyosatini optimallashtirish mumkin. Masalan, "Big Data" texnologiyalari yordamida turistlar afzalliklari, transport yo'nalishlari va bronlash xatti-harakatlarini aniqlash orqali marketing strategiyalarini aniqroq yo'naltirish mumkin. Bu yondashuv investitsiya loyihalarining samaradorligini oshiradi va turizm xizmatlari segmentatsiyasini yaxshilaydi.

Raqamli transformatsiya jarayonida inson kapitalining roli ham nihoyatda muhim. Qoraqalpog'istonda raqamli texnologiyalarni boshqarish, ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, turizm xizmatlarini onlayn targ'ib qilish bo'yicha mutaxassislar yetishmasligi dolzarb masalalardan biridir. Shu bois oliy o'quv yurtlari, jumladan, Nukus



davlat pedagogika instituti, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat universiteti kabi ta'lim muassasalarida "Raqamli turizm" yo'nalishi bo'yicha yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish va xalqaro hamkorlik asosida kadrlar tayyorlash zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasini raqamli iqtisodiyot asosida rivojlantirish keng istiqbolli imkoniyatlarni ochib bermoqda. Hududning xalqaro tanilishi yo'lida Savitskiy muzeyi va Orolbo'yi ekologik turizmi kabi brendlarni global internet platformalarida faol targ'ib etish rejalashtirilmoqda. Bu yo'nalish bo'yicha raqamli reklama va onlayn kontent marketingi orqali xalqaro auditoriyani jalb etish natijasida turistlar oqimi barqaror o'sishi prognoz qilinmoqda.

Raqamli texnologiyalar mahalliy iqtisodiyotning o'sishiga ham bevosita turtki beradi. Xizmat ko'rsatish, transport, mehmonxona va kichik biznes sohalarida yangi ish o'rinlari yaratilishi, shuningdek, mahalliy aholining bandlik darajasi oshishi kutilmoqda. Bu esa turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samarasini kuchaytiradi.

Turistlar uchun qulay sharoit yaratish maqsadida onlayn bronlash, mobil ilovalar orqali gidlik xizmatlari va elektron to'lov tizimlarini keng joriy etish yo'lga qo'yilmoqda. Bu infratuzilma raqamli ekotizimning muhim qismi sifatida turistlarga qulay va xavfsiz sayohat imkonini yaratadi.

Davlat boshqaruvi sohasida raqamli yechimlardan foydalanish orqali turizm jarayonlarini yanada samarali boshqarish ko'zda tutilgan. Masalan, raqamli monitoring tizimlari yordamida turistlar oqimi, xizmatlar sifati va mintaqaviy logistika jarayonlari real vaqt rejimida nazorat qilinadi. Bu turizm siyosatini ilmiy asosda rejalashtirishga va tahlil asosida qarorlar qabul qilishga imkon beradi.

Kelgusi yillarda internet infratuzilmasini yanada yaxshilash, IT-kadrlar malakasini oshirish va raqamli marketing strategiyalarini kuchaytirish orqali hududning raqamli turizm salohiyati sezilarli darajada ortishi kutilmoqda. Bu jarayon davlat, xususiy sektor va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlik orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot vositalarini joriy etish Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni yangi bosqichga olib chiqib, hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish, xalqaro imijini mustahkamlash va aholining farovonligini yuksaltirish uchun muhim omil sifatida shakllanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi statistik ma'lumotlari (2020–2024 yy.).
3. To'raqulov, B. (2022). Raqamli iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
4. Qodirova, D. (2023). Turizm menejmenti va marketingi. Toshkent: Turon-Iqbol.
5. World Tourism Organization (UNWTO). (2023). Tourism and Digital Transformation Report. Madrid.
6. Savitsky State Museum of Art official website: <http://www.savitsky.uz> Statista (2024). Digital Tourism Development Indicators.
7. M.M.Zarikeyeva, R.T.Tulibaeva, A.Q.Xalmamaeva., XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA SIFATNI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNI QO'LLASHNING FOYDALI JIHATLARI, <https://doi.org/10.5281/zenodo.15364241>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
